

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BOTANIKA INSTITUTI

DEXQONOV DAVRON BURXONOVICH

***TULIPA L. TURLARI BO'YICHA YANGICHA QARASHLAR:
MORFOLOGIYASI, TARQALISHI, MOLEKULYAR TADQIQOT VA
MUHOFAZA MASALALARI***

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FAN DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Dexqonov Davron Burxonovich

Tulipa L. turlari bo'yicha yangicha qarashlar: morfologiyasi, tarqalishi, molekulyar tadqiqot va muhofaza masalalari..... 3

Dekhkonov Davron Burxonovich

New insights into the species of *Tulipa* L.: morphology, distribution, molecular and conservation issues..... 25

Дехконов Даврон Бурхонович

Новые взгляды на виды *Tulipa* L.: морфология, распространение, молекулярные данные и проблемы сохранения 47

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ
List of published works..... 51

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BOTANIKA INSTITUTI

DEXQONOV DAVRON BURXONOVICH

***TULIPA L. TURLARI BO'YICHA YANGICHA QARASHLAR:
MORFOLOGIYASI, TARQALISHI, MOLEKULYAR TADQIQOT VA
MUHOFAZA MASALALARI***

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FAN DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Biologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/B 189 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz va rus (rezyume)) Ilmiy kengash web sahifasida (www.botany.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Tojiboyev Komiljon Sharobiddinovich
biologiya fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Hasanov Furqat O'runbayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Weibang Sun

Xitoy Fanlar Akademiyasi Kunming
Botanika Instituti professori

Georgiy Anatolevich Lazkov

Qirgiziston Milliy Fanlar Akademiyasi Biologiya instituti
professori, biologiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «18» sentabr kuni soat 14⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (65-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «12» sentabr kuni tarqatildi.
(2023 yil «12» sentabr kuni 6-raqamli reyestr bayonnomasi).



O.K. Xojimatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
rais o'rinbosari, b.f.d., professor

U.H. Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

F.I. Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
qoshidagi Ilmiy Seminar raisi,
b.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo bo'yicha lola (*Tulipa* L.) turlari yuqori darajadagi manzaraviy va estetik xususiyatga ega o'simliklar hisoblanadi. Yuqori darajadagi endemizm ko'rsatkichlari, aksariyat turlarining kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida ekanligi turkum turlarini morfo-va molekulyar usullar asosida taksonomik baholashni, fitogeografik va iqlim o'zgarishi sharoitlarida populyatsiyalar holati tahlilini hamda muhofaza choralari ishlab chiqishni taqozo etadi. Turkum taksonomiyasida ayrim tasnifiy chalkashliklar, o'zaro duragaylanish jarayonining yuqoriligi va polimorfizm o'ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli ayni paytgacha turlarning aniq soni ma'lum emas. Ohirigi ma'lumotlarga ko'ra (World Flora Online 2023), *Tulipa* turkumiga oid 376 ilmiy nom keltirilgan va ulardan 85 tasiga (23%) qabul qilingan tur, 266 tasiga (71%) tur sinonimi maqomi berilgan bo'lsa, 25 tasi (7%) taksonomik baholanmagan. O'z navbatida, 62 turni Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotining yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarning qizil ro'yhatiga kiritilganligi (IUCN 2022) *Tulipa* turlari bo'yicha biogeografik tahlil va samarali muhofaza choralari amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda tabiiy floralardagi o'simlik turlari, jumladan, *Tulipa* bo'yicha biogeografik tadqiqotlar, iqlim o'zgarishining ta'siri, ularni muhofaza qilish hamda molekulyar tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan, *Tulipa* turlari taksonomiyasi va tarqalishining qaynoq markazlarini aniqlash dolzarb hisoblanadi. Noyob va yo'qolib borayotgan populyatsiyalarni turli iqlim o'zgarishi sharoitlarida kelajakdagi holatlarni modellashtirish, turlarni qulay o'sish va tarqalish omillarini aniqlash, ularga tashqi muhit omillari ta'sirini o'rganish hamda muhofaza strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyo (WCVP 2023), shu jumladan O'zbekiston (Tojibaev et al. 2022) *Tulipa* turlari xilma-xilligiga boy markazlaridan biri hisoblanib, o'z navbatida 75 va 33 turlarni o'z ichiga oladi. *Tulipa* turlarining tirik o'simlik namunalariga asoslangan morfologik tadqiqotlar "O'zbekiston florasini"ning kelgusi nashri uchun, molekulyar taxlillar turkum vakillarining struktural genomi va filogeniyasi bo'yicha yangicha ilmiy qarashlarni shakllanishida, iqlim o'zgarishlari, biogeografik izlanishlar va turlarni qulay o'sish va tarqalish sharoitlarini o'rganish samarali muhofaza choralari amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, populyatsiyalar maydonlarini qisqarishiga olib keluvchi tashqi muhit omillarining ta'siri, noyob va yo'qolib borayotgan turlarning hozirgi holati va dala tadqiqotlari kuzatuvlari *Tulipa* turlari uchun yangi muhofaza strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos hisoblanadi.

Hozirda respublikamizda noyob va yo'qolib borayotgan o'simliklar, jumladan, bir urug'pallali geofitlarning taksonomiyasi, tarqalishi hamda muhofazasi borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, *Allium* L. turkumi bo'yicha o'nlab yangi turlar (Sennikov et al. 2016), aynan *Tulipa* turkumidan esa fan uchun yangi 3 turni kashf etilganligi (Tojibaev 2014; de Groot va Tojibaev 2020), O'zbekistonda tarqalgan 24 turni Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotining yo'qolib ketish

xavfi ostidagi turlarning Qizil ro'yhatiga (IUCN 2022) hamda 19 turni O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga (Khasanov 2019) kiritilganligi yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Davlat barqaror rivojlanish printsipligiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, *Tulipa* turlari asosida taksonomik va fitogeografik taxlillarni o'tkazish, tashqi muhit omillari ta'sirini o'rganish, ayniqsa iqlim o'zgarishi va antropogen omillarning salbiy ta'sirini yumshatish hamda turkum uchun Milliy muhofaza strategiyasini ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida atrof-muhitni muhofaza qilishga oid vazifalarni, O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda 754-sonli "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 21 sentyabrda 409-sonli "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 sentyabrda 3256-sonli "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti va Zoologiya instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrda 5863-sonli «2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. *Tulipa L.* turlariga oid klassik va zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Wageningen University va Leiden University (Niderlandiya), University of Pisa (Italiya), Abant İzzet Baysal University (Turkiya), Chungbuk National University (Janubiy Koreya), Zhejiang University (Xitoy), Research Center for Plant Sciences va Bu Ali Sina University (Eron), Botanika va fitointroduktsiya instituti (Qozog'iston), Biologiya instituti (Qirg'iziston) hamda Botanika institutida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Regel (1873), Baker (1874), Vvedenskiy (1935), Hall (1940), Bochantseva (1962), Vvedenskiy va Kovalevskaya (1971), Ivashenko (2005), Everett (2013), Tojibaev (2010; 2014), de Groot va Tojibaev (2020) tomonidan *Tulipa L.* turlarining morfologiyasi, taksonomiyasi hamda kariosistematikasiga oid tadqiqotlar olib borilgan.

Fitogeografiyaga oid ma'lumotlar esa Bochantseva (1962), Vvedenskiy va Kovalevskaya (1971), Ivashenko (2005), Doğan va Akaydin (2011), Eker, Babaç va Koyuncu (2014) hamda Lazkov va Umralina (2015) tadqiqotlarida yoritilgan.

O'simliklarni qulay o'sishi va tarqalishidagi ekologik determinantlar hamda

turli iqlim senariylarida populyatsiyalarni holatlari bo'yicha tadqiqotlar Lioubimtseva (2009), Gaston (2009), Svenning (2009), Becklin (2016), Huang (2020), Nowak (2020), Wilson (2021) va Volis (2022) ishlarida yoritilgan.

Molekulyar tadqiqotlar natijalari Fay (2001), Zonneveld (2009), Yanagisawa (2012), Veldkamp va Zonneveld (2012), Christenhusz (2013), Li (2017), Kim (2018), Asgari (2020), Hajdari (2021), Li (2021), Lu (2021), Haerinasab (2021), Kiani (2021) va Wilson (2023) ishlarida o'z ifodasini topgan.

Bioxilma-xillikni saqlash va ularni muhofaza qilishga oid tadqiqotlar Kassas (2002), Kumari (2021), Myers (2000), Squires (2013), Volis (2016), Hunter (2011), Eigenbrod (2009), Falkner (1997), Hale (1997), Heywood (1995), Kanwar (2010), Qiang (2003), Marchese (2015), Reynolds (2006), Schwartz (2000), Torquebiau (2000) tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, tadqiqotni bajarishda bir necha xalqaro tashkilotlar va ma'lumotlar bazalari, jumladan BMT, Tabiatni Muhofaza qilish xalqaro birlashmasi (IUCN), Milliy Fan Fondi (NSF), Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturi (UNEP), Jahon muhofaza qilinadigan hududlar (WDPA) hamda boshqa (GBIF, WCSP, IPNI, POWO, WFO) ma'lumotlar bazalaridan foydalanilgan.

Biroq tirik o'simlik namunalari asosida morfologik belgilarni o'rganish, molekulyar-taksonomik taxlillarni amalga oshirish, O'rta Osiyo va O'zbekiston florasini turlarining qaynoq tarqalish hududlarini aniqlash, iqlim o'zgarishi senariylarida populyatsiyalarning hozirgi va kelajakdagi holatini modellashtirish, turlar tarqalishi va qulay yashash muhitining asosiy determinantlari, populyatsiyalar va ularni areallarini qisqarishiga olib keluvchi stress omillar ta'sirini o'rganish, *Tulipa* turkumini muhofaza qilish strategiyasini ishlab chiqish kabi ilmiy-tadqiqotlar qisman olib borilgan yoki umuman olib borilmagan. Shunga ko'ra, tirik namunalari asosida morfologik va genom tadqiqotlarini o'tkazish, muhofaza strategiyasini ishlab chiqish uchun fitogeografik va ekoregional taxlillar, iqlim o'zgarishi senariylarida populyatsiyalar holatini modellashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti "O'zbekiston florasini" laboratoriyasining "Janubi-G'arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panj okruglari florasining to'r tizimli xaritalash (Surxondaryo viloyati qismi)" hamda "O'zbekiston-Xitoy Molekulyar filogeniya va biogeografiya" xalqaro laboratoriyasining "Hayot daraxti: O'zbekiston bir urug'pallali o'simliklari" davlat dasturlari, institutning A-FA-2021-427-raqamli "O'zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi", MRB-AN-2019-30-raqamli O'zbekiston-Belorussiya xalqaro ilmiy-texnik dasturi doirasidagi "DNK shtrixkodlash texnologiyasi asosida Belarus va O'zbekistonning noyob va yo'qolib borayotgan o'simliklarini genetik inventarizatsiya qilish" ilmiy loyihalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti va Xitoy Fanlar Akademiyasi Shinjon Ekologiya va Geografiya instituti xamkorligidagi "Ecological Management of Saline-Alkali Land in the Aral Sea Region, Central Asia Green Road Project 2

xalqaro ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Tulipa* turlari bo'yicha amaliy morfologik va biogeografik tadqiqotlar, plastom asosida molekulyar-taksonomik baholash, iqlim o'zgarishi senariylari bo'yicha bioiqlimiy modellashtirish va Milliy muhofaza strategiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tirik o'simlik namunalari asosida *Tulipa* turlari morfologiyasini o'rganish;

O'rta Osiyoda tarqalgan *Tulipa* turlarining solishtirma morfologiyasi va unga asoslangan filogeniyasini tadqiq etish;

O'zbekiston florasidagi *Tulipa* turlarining zamonaviy konspektini yaratish; turlarni to'r tizimli xaritalash asosida GAT xaritalarini yaratish, tarqalishning qaynoq nuqtalarini aniqlash va biogeografik taxlillarni amalga oshirish;

Tulipa turlarini qulay o'sish va tarqalishini belgilovchi muhim iqlimiy o'zgaruvchilar va omillarni aniqlash hamda ta'sirini tahlil qilish;

iqlim o'zgarishi senariylarida kamyob turlar populyatsiyalari holatlarini bioiqlimiy modellashtirish;

Tulipa turlari uchun plastid genomi xaritasini yaratish va genom tarkibini tadqiq etish;

Tulipa turlari uchun molekulyar filogenetik daraxtni ishlab chiqish va molekulyar-taksonomik baholash;

O'zbekistonda *Tulipa* turlarini muhofaza qilishning milliy strategiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida *Tulipa* (Liliaceae) turkumi turlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti tirik o'simlik namunalari asosidagi morfologiya, biogeografik tahlillar, iqlim senariylari bo'yicha populyatsiyalar holatini modellashtirish, molekulyar tadqiqot uslublari va muhofaza qilish strategiyasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada dala, kuzatuv, taqqoslash, xaritalash, taxliliy, molekulyar-genetik va bioinformatik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tirik o'simlik namunalari morfologik tadqiq qilish asosida "O'zbekiston florasini"ning yangi nashri uchun *Tulipa* turkumining zamonaviy konspekti tuzilgan;

O'rta Osiyo florasida tarqalgan 48 turning solishtirma morfologiyasi o'rganilgan va 24 belgilar asosda filogenetik daraxt yaratilgan;

O'rta Osiyoning fitogeografik va ekoregional hududlari kesimida turlar xilma-xilligining qaynoq markazlari aniqlangan;

turkumning seksiyalari va turlari kesimida O'zbekiston hududida tarqalishini aks ettiruvchi to'r tizimli xaritalari yaratilgan;

iqlim o'zgarishining turli senariylari bo'yicha 3 ta geografik hududlarda tarqalgan turlarning bioiqlimiy modellari yaratilgan;

uch turga mansub iqlimiy o'zgaruvchilarning turlarni tarqalishidagi ahamiyati modellashtirilgan;

o'n to'qqiz ta *Tulipa* turlari uchun plastid genomining tuzilishi, tarkibi va genlarning funksiyalari tadqiq qilingan;

yigirma to‘qqiz *Tulipa* turlarining molekulyar filogenetik daraxti ishlab chiqilgan va turlarning taksonomik maqomi taxlil qilingan;

tashqi muhit omillarini *Tulipa* turlariga salbiy ta'sirlari ochib berilgan;

O‘zbekistonda *Tulipa* turlarini muhofaza qilishning Milliy strategiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston florasining kelgusi nashri uchun *Tulipa* turlarining 308 ta morfologik belgilar qo‘shish va taxrirlash tavsiya etilgan;

Tulipa turkumining O‘zbekiston florasida tarqalgan 5 seksiyaga mansub 33 turlari uchun geoaxborot tizimidagi tarqalish xaritalari ishlab chiqilgan;

O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududlarida samarali muhofaza choralari olib borish uchun turlar xilma-xilligi yuqori bo‘lgan fitogeografik hududlar va ekoregionlar aniqlangan. Turli iqlim senariylarida *Tulipa* kamyob populyatsiyalarning hozirgi va kelajakdagi holati modellashtirilgan;

O‘rta Osiyo florasidagi 53 tur, jumladan O‘zbekistonda tarqalgan 24 tur Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotining (IUCN) yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarning Qizil ro‘yhatiga kiritilgan va 3 tur (*T. borszczowii*, *T. hissarica*, *T. korshinskyi*) O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining yangi nashriga kiritish uchun tavsiya qilingan.

O‘zbekiston sharoitida *Tulipa* turlarni muhofaza qilish uchun 14 ta uslublarni o‘z ichiga olgan 3 ta yondoshuvdan iborat milliy muhofaza strategiyasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llanilgan zamonaviy usullar va ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarning nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, xalqaro va Respublika miqyosidagi konferensiyalarda muhokama qilinganligi, olingan xulosalarning asoslanganligi, shuningdek, dissertatsiya ishining amaliy natijalarini tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati solishtirma morfologiyaga asoslangan filogeniya natijalarini molekulyar-genetik tadqiqot natijalari bilan uzviy bog‘liqligini chuqur tahlil etilganligi, o‘n to‘qqiz turlar uchun plastid genomi xaritasi va tarkibini aniqlanganligi, yigirma to‘qqiz turlar asosida molekulyar filogenetik daraxtni yaratilganligi, turlarni aniqlash uchun seksiya va turlar kesimidagi aniqlovchi kalitlarni ishlab chiqilganligi, O‘zbekistonda tarqalgan endemik *Tulipa* ro‘yhatini qayta shakllantirilganligi, populyatsiya sonlarini avvalgi (1970 yil) va hozirgi (2022 yil) holatini o‘rganilganligi, turlarni tarqalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillarni aniqlanganligi, turli iqlim o‘zgarish senariylarida *Tulipa* populyatsiyalarining hozirgi va kelajakdagi holatlari modellashtirilganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining tirik o‘simlik materiallari asosida morfologik belgilarni o‘rganilganligi va O‘zbekiston florasining yangi nashri uchun tegishli ma‘lumotlarni tavsiya qilinganligi, biogeografik taxlillar natijasida O‘zbekistonda tarqalgan 29 turga oid 37 yangi tarqalish manzillarini qayd etilganligi, samarali muhofaza choralari ishlab chiqish uchun turlarni fitogeografik va ekoregional tarqalishi

chuqur taxlil etilganligi, xaritalarni ishlab chiqilganligi, 3 ta tashqi muhit omillariga oid 13 ta stress omillarning salbiy ta'siri yoritilganligi, 24 ta turni Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotining (IUCN) yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarning Qizil ro'yhatiga kiritilganligi hamda 3 ta asosiy yo'nalishda 14 ta yondoshuvdan iborat turkumni milliy darajada muhofaza qilish strategiyasini ishlab chiqilganligi ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'rta Osiyo va O'zbekiston floralaridagi *Tulipa* turkumi turlarini o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Tulipa turlarini tadqiq qilish va muhofaza choralari ko'rish maqsadida 32 turlarga oid ma'lumotlar GBIF (Global Biodiversity Information Facility) ma'lumotlar bazasiga kiritilgan va joriy qilingan (Global biologik xilma-xillik ma'lumotlar bazasining 2023 yil 26 iyundagi ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekistonda tarqalgan turlarning tipi, morfologik tavsifi, tarqalishi, fenologiyasi va ekologiyasiga oid ma'lumotlar *Tulipa* turlarini seksiya va turlar kesimida bir-biridan farqlash, turlarni 1970 yildan avvalgi va hozirgi holatini baholash, turlarni tarqalishi va joylashuvi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro darajada foydalanish imkonini bergan.

O'zbekiston Milliy Gerbariysi (TASH) uchun 26 turga mansub 200 dan ortiq gerbariy namunalari topshirilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2023 yil 9 iyundagi 4/1255-1277-sonli ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan noyob, yo'qolib borayotgan va endemik turlarning yangi gerbariy namunalari TASH ning O'rta Osiyo bo'limi kolleksiyasini sezilarli boyitgan va chuqurlashtirilgan morfologik hamda biogeografik izlanishlarni olib borish imkonini bergan.

O'zbekistonda tarqalgan 24 ta *Tulipa* turlari Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotining yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarning Qizil ro'yhatiga (IUCN Red List) kiritilgan va muhofaza uchun joriylashtirilgan (Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotining 2023 yil 27 iyundagi ma'lumotnomasi). Natijada *Tulipa* turlarini xalqaro darajada muhofaza qilish, ularni noyoblik darajasini baholash, biogeografik ma'lumotlardan global miqiyosda foydalanish va muhofaza qilish choralarni amaliyotda qo'llash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish nashr etilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta ilmiy maqola, jumladan, 10 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, yetti bob, xulosa, adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 198 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga

bog'liqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha respublika va xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "***Tulipa L. turkumi turlarini o'rganilish tarixi***" nomli birinchi bobi yovvoyi *Tulipa* turlarini taksonomiyasi, biogeografiyasi, bioiqlimiy o'zgarishlarga oid tadqiqotlar va bioxilma-xillikni muhofazasiga bag'ishlangan taxlillarni qamrab olgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot materiallari va uslublari**" nomli ikkinchi bobida tadqiqot hududining tabiiy-geografik tavsifi, dala tadqiqotlari, qo'llanilgan tadqiqot metodlari, ularni amalga oshirish bosqichlari va jarayonlari batafsil yoritilgan.

Tadqiqot hududi 3 toifaga bo'lingan: O'rta Osiyo (mintaqaviy), O'zbekiston Respublikasi (ma'muriy) va Farg'ona vodiysi (mahalliy). Dissertatsiya ishida lola turlarini solishtirma morfologiyasi, morfologiyaga asoslangan filogeniya, turlarni iqlim o'zgarishi senariylari asosida bioiqlimiy modellashtirish, fitogeografik va ekoregional taxlillar, strukturaviy genom va molekulyar filogenetik tadqiqotlar mintaqaviy darajada, tirik o'simlik namunalari asosidagi morfologiya, to'r tizimli xaritalash asosida turlarni tarqalishi, turlar konspekti, turlar uchun qulay o'sish sharoitlarini bashoratlash, tarqalishiga ta'sir etuvchi determinantlar, stress faktorlarini salbiy ta'sirini o'rganish va muhofaza qilish strategiyasini ishlab chiqish ma'muriy miqiyosda hamda Farg'ona vodiysi *Tulipa* turlarining biogeografik tahlili eng qaynoq hudud sifatida mahalliy darajada tadqiq qilingan.

O'rta Osiyo tabiiy-geografik jihatdan asosan cho'l va yarim cho'llardan iborat o'ziga xos hudud (Lioubimtseva and Henebry 2009) bo'lib, uning bioxilma-xilligi iqlim o'zgarishiga juda sezgir hisoblanadi (Brooke 2014). Ayniqsa, suv resurslari hudud bioxilma-xilligini shakllanishi va saqlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqada suv resurslarini yetishmovchiligi va notekis taqsimotiga qaramasdan (Wang 2022), O'rta Osiyo o'simliklar bioxilma-xilligini, jumladan, endem turlarning (Tojibaev et al. 2020) qaynoq nuqtalaridan biridir (Myers et al. 2000; Nowak et al. 2020). O'rta Osiyo tabiiy florasida 10 mingdan ortiq yuksak o'simliklar turlarini o'z ichiga oladi (Khasanov 2015). Mintaqada 75 *Tulipa* turlarini qamrab olgan.

O'zbekiston botanik-geografik jihatdan tog'li O'rta Osiyo (Afg'on-Turkiston) va Turon provinsiyalariga bo'linadi (Tojibaev et al., 2016). Respublikaning sharqiy qismida g'arbiy Tiyonshon va Pomir-Oloy tog' tizmalari joylashgan va bu hudud O'zbekiston umumiy maydonining 12% qismini egallaydi. Markaziy va g'arbiy qismlar Qizilqum cho'llari va Ustyurt platosi bilan qoplangan. O'simliklar bioxilma-xilligi hududning sharqiy va markaziy qismlaridan g'arb tomon kamayib boradi. O'zbekistonda 33 *Tulipa* turlari qayd etilgan.

Tulipa turlarining qaynoq markazi sifatida tadqiqotlar olib borilgan Farg'ona vodiysining tabiiy-geografik hududi O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan. Vodiy shimoliy-g'arbiy tomondan Chotqol, shimoliy tomondan Qurama, janubiy tomondan Turkiston va Oloy, shimoliy-sharqiy tomondan Farg'ona tog' tizmalari

bilan o‘ralgan. Farg‘ona vodiysi piyozli geofitlarning global qaynoq markazi bo‘lib, tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasi florasida uchraydigan *Allium* L. turlarining 60% va O‘zbekistondagi *Eremurus* M. Bieb. turlarining 50% vodiylar florasida qayd etilgan (Tojibaev et al., 2018). Hududda *Tulipa* turlarining 23 turi aniqlangan.

Dissertatsiyaning “***Tulipa* turlari morfologik belgilarining tahlili**” nomli uchinchi bobida tabiiy sharoitda o‘sayotgan tirik o‘simliklarining morfologik belgilarni o‘rganish, solishtirma morfologiya va u asosidagi filogenetik tadqiqotlar hamda O‘zbekiston florasida tarqalgan *Tulipa* turlarining zamonaviy konspekti, turlarni uchrash joylari, o‘shish sharoiti va noyoblik darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yoritilgan.

Tirik o‘simlik namunalari asosidagi morfologik belgilarni o‘rganish natijasida *Lanatae*, *Kolpakowskianae*, *Vinistriatae*, *Spiranthera* va *Biflores* seksiyalariga oid 26 turning 200 dan ortiq nusxadagi gerbariy namunalari yig‘ildi va ilk bor ilmiy va amaliy maqsadlarga xizmat qiluvchi illyustratsiyalari tayyorlangan. “O‘zbekiston florasida”ning yangi nashri uchun 308 ta morfologik belgilar qo‘shish hamda tahrirlash uchun tavsiya etilgan.

O‘rta Osiyo florasidagi tarqalgan *Lanatae*, *Kolpakowskianae*, *Vinistriatae*, *Spiranthera*, *Biflores*, *Clusianae*, *Orithyia* va *Multiflorae* seksiyalariga mansub 48 turning solishtirma morfologiyasi o‘rganilgan hamda 24 ta belgilar asosida morfologiyaga asoslangan filogenetik daraxt tuzilgan. Unda *Orithyia* va *Biflores* seksiyalari daraxtning asos va *Lanatae* seksiyasi daraxtning eng ustki qismida joylashgan. Filogenetik daraxtning bazal qismidagi seksiyalar vakillari arxaik va dastlabki divergensiyalangan turlar hisoblanadi. Ushbu natija molekulyar tadqiqotlarga asoslangan Wilson (2023), Christenhusz et al. (2013) va Zonneveld (2009) tadqiqotlari natijalariga mos keladi.

“O‘zbekiston florasida”ning navbatdagi nashri uchun *Tulipa* ning zamonaviy konspektini tuzishda turlar taksonomik va nomenklaturaviy jihatdan qayta ishlandi. *Lanatae*, *Kolpakowskianae*, *Vinistriatae*, *Spiranthera* va *Biflores* seksiyalariga mansub bo‘lgan 33 turlarni aniqlash uchun dixotomik kalit, birinchi nashr etilgan manbasi, nomenklaturaviy tipi, fenologiyasi, ekologiyasi, kamyoblik darajasi, etimologiyasi, O‘zbekiston botanik-geografik rayonlarida tarqalishi va boshqa zarur ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot hududlarida *Tulipa* turlari fitogeografiyasining asosiy xususiyatlari**” nomli to‘rtinchi bobida tadqiqot ob‘ektlarini (a) O‘rta Osiyo fitogeografik rayonlari va ekoregionlari bo‘yicha tarqalishi; (b) O‘zbekiston hududi bo‘yicha to‘r tizimli xaritada; muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda (v) hamda turlar xilma-xilligi hamda yuqori endemizm ko‘rsatkichi bilan alohida ajralib turadigan Farg‘ona vodiysida (g) *Tulipa* turlari tarqalishining asosiy xususiyatlari yoritilgan.


O‘rta Osiyo ekoregionlari o‘zining iqlimi, vegetatsiyasi, tuproq va boshqa ekologik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi hududlardir. Ular o‘simliklarni tarqalishi, evolyutsiyasi va samarali muhofaza choralari ko‘rishda muhim ahamiyatga ega (Villarreal et al. 2019; Pandey et al. 2021). O‘rta Osiyo ekoregionlarining xaritasi Dinerstein va boshq. (2017) ishlariga asoslangan holda

yaratilgan. Hisor-Oloy ochiq oʻrmonzolarida 41 *Tulipa* turlarini tarqalishi bu ekoregionni eng qaynoq, Tiyon-Shon arid dashtlari (19 tur), Pomir-Oloy, gʻarbiy Tiyon-Shon togʻ tizmalari va Oloy-gʻarbiy Tiyon-Shon dashtlari (18 tur) nisbatan turlarga boy ekoregionlar ekanligi aniqlangan.

Oʻrta Osiyo botanik-geografik rayonlarida (Kamelin 2021) *Tulipa* turlarini tarqalishi tahlili, Fargʻona vodiysining eng turlarga boy (25 tur) hamda Moʻgʻol togʻ-Qurama (13 tur), Koʻhiston (10 tur), Hisor, Darvoz va Koʻhitang-Boysun (har biri 9 turdan) geografik rayonlarini oʻrtacha tur boyligiga ega ekanligini koʻrsatgan.

Biogeografik tahlillar natijasiga koʻra, Oʻrta Osiyo ekoregionlari va fitogeografik rayonlarida *T. altaica* va *T. turkestanica* (6 ta ekoregionda) hamda *T. korolkowii* va *T. turkestanica* (10 ta fitogeografik rayonda) eng keng tarqalgan turlar sifatida qayd etilgan. Faqat bitta ekoregion (24 tur) yoki fitogeografik rayonda (22 tur) turlar tarqalishining taxlili mikro-endemizm hodisasi kuchli ekanligi yaʼni bitta ekoregion (66%) yoki fitogeografik (72%) rayonda tarqalgan *Tulipa* turlarini asosiy qismi endemik turlar ekanligi aniqlangan.

Oʻzbekistonda tarqalgan *Tulipa* turlarini toʻr tizimli xaritalarida tarqalishini aks ettirish uchun tadqiqot hududi 10 ta uzunlik (1, 2, 3... va 10) va 10 ta kenglik (A, B, C... va J) komponentlardan iborat jami 100 ta toʻr kataklarga boʻlingan (1-rasm).



1-rasm. Oʻzbekistonda hududida *Tulipa* turlarini toʻr tizimli xaritalash asosida tarqalishi

Ajratilgan kataklarning turlarga boyligiga koʻra: (a) hududning gʻarbiy qismida joylashgan turlar kam uchraydigan (1–3 tur) – 16 ta kataklar; (b) hududning shimoli-gʻarbiy joylashgan oʻrtacha turlar boyligiga ega (4–6 tur) – 5 ta kataklar va (v) turlarning qaynoq markazlari (7–13 tur) toifalarga ajratildi. Turlarga boy 8 ta kataklar hududning janubiy, shimoli-sharqiy va sharqiy qismida joylashgan (F6, G6, H6, I6, F8, G8, E9, F9).

O‘zbekiston botanik-geografik rayonlarida turlar boyligini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar okruglar darajasida G‘arbiy Tiyonshon (14 tur) va G‘arbiy Hisor (13 tur) okruglari hamda rayonlar kesimida G‘arbiy Chotqol, Qurama, Boysun, Sangardak-To‘palang rayonlarini yetakchilik o‘rnini ko‘rsatdi.

Botanik-geografik rayonlar bo‘ylab eng keng tarqalgan turlar qatoriga *T. korolkowii* (7 ta rayonda), *T. sogdiana* va *T. turkestanica* (5 ta) kiradi. 14 tur faqat 1 ta rayonda uchraydi. Bu boradagi batafsil ma‘lumotlar dissertatsiyada keltirilgan.

Tadqiqot ob‘ektlarining O‘zbekistonda tarqalishini taxlil qilish natijasida *T. bactriana*, *T. butkovii*, *T. sharipovii*, *T. intermedia* va *T. uzbekistanica* O‘zbekiston florasining milliy endemlari maqomi yana bir bor tasdiqlandi. Milliy endem tur qatoriga kiritilgan *T. intermedia* mahalliy tadqiqotchi kuzatuvlari bo‘yicha (Farg‘ona vodiysining Qirg‘iziston Respublikasi qismida, G.A. Lazkov ma‘lumoti) O‘zbekiston hududidan tashqarida uchrashini qayd etgan bo‘lsada, rasmiy manbalarda chop etilmagan.

Tulipa turlarini O‘zbekiston hududida 1970 yildan avval va hozirgi paytdagi tarqalishining holati mavjud gerbariy ma‘lumotlari va dala tadqiqotlarida to‘plangan ma‘lumotlarni xaritalash asosida o‘rganilgan. Natijalarga ko‘ra, populyatsiyalar sonini qisqarganligi kuzatilgan.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti tomonidan tuproq tiplarining butunjahon xaritalarini yaratilgan (Fischer et al. 2008). Tuproq tiplari bir-biridan mexanik tarkibi, kimyoviy xossalari va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. Ushbu ma‘lumot bazasi asosida O‘zbekiston florasidagi *Tulipa* turlarini tuproq tiplarida tarqalish xaritasi ishlab chiqilgan. *Tulipa* turlarini tarqalishini tahlil qilish 25 turni litozol (I), 17 tur kaltsiy kserozol (Xk), 9 ta tur kaltsiy yermozol (Yk), 8 tur kalkarik gleyzol (Gc) va 7 tur eutrik gleyzol (Ge) tuproq tiplarida uchrashi aniqlangan. Turlarni asosan litozol va kaltsiy kserozol tuproq tiplarida keng tarqalganligi, ushbu hududlarni *Tulipa* ning qaynoq nuqtalari hisoblangan g‘arbiy Tiyon-Shon va Pomir-Oloy tog‘ tizmalariga to‘g‘ri kelishi bilan izohlanadi.

Bioxilma-xillikni muhofaza qilishda tabiiy qo‘riqlanadigan hududlarni tashkil etish muhim hisoblanadi (Laguna 2004; Hernandez et al. 2021). O‘zbekiston florasidagi *Tulipa* turlarining asosiy qismi (82%) ushbu hududlarda, ya‘ni 27 lola turi 7 ta davlat qo‘riqxonalarini va 2 ta biosfera rezervatida hamda 19 tur Milliy tabiat bog‘lari floralari tarkibida muhofaza etiladi. Tog‘li hududlarda joylashgan Hisor (9 tur) va Surxon (8 tur) davlat qo‘riqxonalarini hamda Ugom-Chotqol milliy tabiat bog‘i (10 tur) *Tulipa* turlari soni bo‘yicha yetakchilik qiladi. Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati, Oqtog‘-Tomdi qo‘riqxonasi va Orolqum milliy tabiat bog‘i esa *Tulipa* turlari eng kam tarqalgan hududlar hisoblanadi.

Farg‘ona vodiysining tabiiy-geografik hududi O‘rta Osiyoda *Tulipa* turlarining eng qaynoq markazlaridan biri bo‘lib, hududda 5 seksiyaga oid 23 turlar qayd etilgan. Ushbu tadqiqotda turlarning tarqalishini aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritalari ishlab chiqilgan va geografik taxlili amalga oshirilgan, endemizm darajasi baholangan, IUCN (2022) tamoyillari asosida kamyoblik maqomi belgilangan va muhofaza choralari ishlab chiqilgan. Vodiyni o‘rab turuvchi tog‘ tizmalari orasida Qurama (12 tur), Turkiston va Chotqol (10 tadan tur) tizmalari *Tulipa* turlariga

boyligi bilan ajralib turadi. Ma'muriy hududlar kesimida Qirg'iziston florasi ustunlik qiladi (6 tur). Keyingi o'rinlarda keluvchi O'zbekiston (5 tur) va Tojikiston (4 tur) floralari bir-biriga yaqin ko'rsatkichlarga ega. Barcha ma'muriy hududlar bo'ylab tarqalgan turlar soni 8 tani tashkil etadi. Farg'ona vodiysining muhofaza etiladigan hududlari orasida Sari-Chelak qo'riqxonasi (4 tur), Pop milliy bog'i (3 tur) va Oqtosh (3 tur) qo'riqxonalari *Tulipa* turlari muhofazasida muhim o'rin tutadi.

Ishning "***Tulipa* turkumi turlarining plastom strukturasi va filogeniyasi**" nomli beshinchi bobida *Tulipa* turlari plastida genomlarining tuzilishi, genlar kategoriyasi, nomlari, funksiyalari, nukleotid tarkibi, ekzonlardagi nukleotidlar o'zgaruvchanligi aniqlangan hamda turlarning molekulyar filogeniyasi ishlab chiqilgan va ularning taksonomik maqomi tavsiya etilgan.

O'zbekiston florasida tarqalgan 19 *Tulipa* turlarining plastom strukturasi o'rganish ularni boshqa yopiq urug'li o'simliklar kabi 4 qismdan (2 ta IR, LSC va SSC) iborat ekanligi aniqlangan (2-rasm).

Genomda G+C nukleotidlarining ulushi 36.6-36.7% ni tashkil qilgan bo'lsa, LSC 34.6%, SSC 30.1-30.2% va IR qismlari 42.1% ni tashkil etgan.


Tulipa turlari plastida genomi jami 134 ta genlardan iborat bo'lib, 112 tasi bevosita sintez jarayonlarida, jumladan, 78 ta oqsil, 4 tasi rRNK, 30 ta tRNK sintezida ishtirok etsa, 4 tasi psevdogenlar ekanligi aniqlangan. Genlarning 18 tasi esa genomning IR qismida duplikatlangan bo'lib, 6 tasi oqsillarni (*ndhB*, *rpl2*, *rpl23*, *rps7*, *rps12*, va *ycf2*), 4 tasi rRNK (*rrn4.5*, *rrn5*, *rrn16*, va *rrn23*), 8 tasi tRNK (*trnA-UGC*, *trnH-GUG*, *trnI-CAU*, *trnI-GAU*, *trnL-CAA*, *trnN-GUU*, *trnR-ACG*, va *trnV-GAC*) sintezini kodlovchi va 4 ta (*ycf1*, *rps19*, va 2 ta *ycf68*) psevdogenlardan iborat.

rps19 va *ycf1* genlari genomning IR qismi chegarasida joylashgan bo'lib, ularning oqsillarni kodlash qobiliyati qisman gen duplikatsiyasi tufayli yo'qolgan. Shuningdek, *ycf68* va *ycf15* genlarni psevdogenligi hamda *infA* genida nukleotid yetishmovchiligi sababli genlarni ekspressiya xususiyati yo'qolgan. *ycf68* va *ycf15* psevdogenlarining kodlash qobiliyatini yo'qolganligi avval ham o'rganilgan (Li et al. 2017, Lu et al. 2017) bo'lsada, mazkur tadqiqotda *ycf68* va *ycf15* kodlash qobiliyatini qisman yo'qolganligi genlarni ortiqchaligi (gene redundancy) bilan tushuntiriladi. Translyatsiya initsiatsiyasi faktori 1 sintezini kodlovchi *infA* genining kodlash qobiliyatini to'liq yo'qolganligi evolyutsiya davomida bu funktsiyani boshqa gen bajarayotgani yoki bu oqsil tur uchun o'z ahamiyatini yo'qotganligi bilan ifodalanadi (Li et al. 2017).

Plastomda takrorlanuvchi nukleotid birikmalarini uchrashi 6 ta kategoriyada (mono-, di-, tri-, tetra-, penta- va geksanukleotid takrorlar) 61 tadan (*T. scharipovii*) 89 tagacha (*T. sogdiana*) takrorlanishi aniqlanib, ulardan mononukleotid takrorlar eng ko'p uchragan.

Natijalarga ko'ra, *rpoB-trnC*, *petA-psbJ*, *rpl33-rps18*, *rpoA-rps11*, *ndhF-ndhD*, *rps15-ycf1*, *psaJ* genlari yuqori polimorf xususiyatini namoyon etgan va *Tulipa* turlari uchun populyatsion genetik taxlillar uchun tavsiya etiladi.


Tadqiq etilgan *Tulipa* plastom genlari orasida *psaJ* genini nukleotidlar xilma-xilligiga boy ekanligi aniqlangan.



2-rasm. *Tulipa* turlaning plastom strukturasi

Tulipa turlarining molekulyar filogeniyasi O'rta Osiyoda tarqalgan 29 tur plastid genomlarining 76 ta oqsil sintezida ishtirok etuvchi genlari asosida olib borildi (3-rasm). Tashqi guruh sifatida *E. japonicum* and *E. sibiricum* foydalanilgan. Qo'llanilgan 3 ta uslublarning barchasida (Bayesian inference, maximum parsimony va maximum likelihood) o'xshash topologiya kuzatilgan.

Boshqa tadqiqot natijalariga (Christenhusz et al. 2013; Wilson 2023) o'xshash holda, *Kolpakowskianae* seksiyasi turlari daraxtda tarqoq joylashgan. Jumladan, *T. ostrowskiana*, *T. intermedia*, *T. korolkowii*, *T. zenaidae* va *T. thianschanica* seksiyaning boshqa turlariga nisbatan alohida klad hosil qilgan va kuchli qo'llab-quvvatlangan. Bu klad ichida *Tulipa* seksiyasiga mansub *T. schrenkii* (*T. suaveolens* ning sinonimi) *T. ostrowskiana* (*Kolpakowskianae* seksiyasi) bilan juda yaqin joylashgan. Molekulyar va morfologik natijalar taxlili asosida *T. schrenkii*, *T. suaveolens* va *T. ostrowskiana* turlarini sinonimlashtirish, bitta *T. ostrowskiana* turi deb yuritilish taklif etiladi.



3-rasm. *Tulipa* turlarining molekulyar filogenetik dendrogrammasi

T. intermedia va *T. korolkowii* filogenetik daraxtda juda yaqin joylashgan. Plastom asosidagi natijalar, biogeografik va morfologik o‘xshashlik hamda mavjud ma‘lumotlar (Wilson 2023) asosida bu turlarni bir nomga birlashtirish va uni *T. korolkowii* nomi bilan yuritish tavsiya etiladi.

Molekulyar va morfologik tadqiqot natijalariga ko‘ra (Christenhusz et al. 2013; van Raamsdonk 1995; Everett 2013), *T. zenaidae* *T. lehmanniana* ning gibridi sifatida keltirilishiga qaramay ushbu turlar alohida kladlarda joylashgan va ularni molekulyar, biogeografik va morfologik jihatdan farqlanishlarini hisobga olib mustaqil turlar deb yuritish tavsiya etiladi.

Hall (1940) gerbariy materiallari asosida *T. thianshanica* va *T. iliensis* turlarini *T. altaica* ga birlashtirgan va ushbu turlarni *Orythia* turkumostiga tegishli deb hisoblagan. Bir qancha tadqiqot natijalarida *T. thianshanica* mustaqil (Czerepanov 1995; Nikitina 1951; Zhengyi 2000; Zonneveld 2009) yoki boshqa turning sinonimi (Christenhusz et

al. 2013, Everett 2013) deb keltirilgan. *T. altaica* va *T. iliensis* filogenetik daraxtdagi joylashuvi nukleotidlar almashinuvi natijasida yuzaga kelganligini hisobga olib, kelgusida qayta taksonomik baholash lozim.

Christenhusz va boshq. (2013) *T. affinis* ni *T. fosteriana* ga sinonim sifatida keltirilgan. Biroq turlar o'rtasida morfologik farqlar ushbu turlarni kelgusida qayta taksonomik baholash zarurligini ko'rsatadi.

Christenhusz va boshq. (2013) ishlarida *T. borszczowii* va *T. lehmanniana* filogenetik daraxtda yaqin joylashgan va mustaqil tur sifatida qabul qilingan (accepted species). Molekulyar tadqiqot natijasi, aniq biogeografik aloxidalanishning mavjud emasligi, morfologik yaqinlik va yashash muhitini o'xshash ekanligini hisobga olib, ushbu turlarni bitta turga birlashtirish va *T. lehmanniana* deb nomlash tavsiya etiladi.

T. scharipovii va *T. ferganica* ni filogenetik daraxtda yaqin joylashuviga qaramasdan bir qator muhim farqlanuvchi belgilarga ega. Birinchidan, turlarni yashash muhitlari bir-biridan to'liq ajralgan bo'lib, *T. scharipovii* Chap adirliklarining bo'z tuproqlarida, *T. ferganica* esa asosan Farg'ona vodiysini o'rab turuvchi o'rta tog'larining toshli-shag'alli tuproqlarida tarqalgan. Ikkinchidan, o'simlikning piyoz tuzilishi, vegetativ va generativ organlarning tuklanishi, generativ organlar tuzilishidagi farqlar hamda molekulyar tadqiqot natijalarini hisobga olgan holda, ushbu turlarni mustaqil tur sifatida qabul qilish tavsiya etiladi.

T. buhseana va *T. sogdiana* turlarining yashash muhiti va umumiy ko'rinishi o'xshash. Ko'p tadqiqotlarda bu turlar (Christenhusz 2013; Everett 2013; Zhengyi 2000; Zonneveld 2009) *T. biflora* ning sinonimi sifatida keltirilgan. Lekin turlarning piyozchasi, barg joylashuvi, poyadagi gullar soni, changchi ipining tuklanishi, tashqi va ichki gultojibarglarining tuklanishidagi farqlar hamda molekulyar tadqiqot natijalarini hisobga olib, *T. buhseana* va *T. sogdiana* ni mustaqil turlar sifatida qabul qilish tavsiya etiladi.

Seksiya darajasida *Orithyia*, *Sylvestris* va *Biflores* seksiyalarini filogenetik daraxtning asosida joylashuvi ularni arxaik va dastlab divergensiyangan seksiyalar ekanligini hamda morfologiyaga asoslangan va boshqa molekulyar (Christenhusz 2013; Wilson 2023) filogeniya tadqiqot natijalariga mos kelishini ko'rsatgan.

Tadqiqotning **“*Tulipa* L. turlari ekologik masalalarini modellashtirish va taxlil qilish”** nomli oltinchi bobi turlarni yashash muhiti bilan o'zaro munosabati, noyob turlarni turli iqlim o'zgarish senariyalaridagi holatlari, turlar tarqalishini modellashtirish va qulay o'sish muhitini bashoratlash masalalarini o'z ichiga oladi.

Dissertatsiya tadqiqoti doirasida O'rta Osiyoda tarqalgan kamyob turlar sifatida Qizil Kitobga kiritilgan *Tulipa* turlarining muhim iqlimiy o'zgaruvchilari turlarni tarqalishi bo'yicha 3 ta geografik hududlarga (g'arbiy Tiyon-Shon, Pomir-Oloy va keng tarqalgan) bo'lingan holda o'rganilgan. Unga ko'ra, Farg'ona vodiysining **g'arbiy Tiyon-Shon** qismida tarqalgan *Tulipa intermedia*, *T. scharipovii* va *T. ferganica* turlari uchun ClimaticMoistureIndex, PetWettestQuarter, PetColdestQuarter iqlimiy o'zgaruvchilar muhim deb topilgan. Ushbu turlarning turli iqlim senariylari bo'yicha kelajakda tarqalish areallari va o'sishi uchun qulay muhit ularning hozirgi tarqalgan joyiga juda yaqin joylashgan.

Pomir-Oloy tog‘ tizmalarida tarqalgan turlarni iqlim o‘zgarishiga munobatini o‘rganish uchun *Tulipa affinis*, *T. carinata*, *T. ingens*, *T. lanata* va *T. tubergeniana* tanlab olingan. Ulardan O‘zbekistonning janubiy qismidagi o‘rta tog‘ mintaqasida uchrovchi *T. carinata*, *T. ingens* va *T. lanata* tularining barchasi uchun o‘rtacha oylik harorat (BIO2 = Mean Diurnal Range) eng muhim iqlimiy o‘zgaruvchi ekanligi aniqlangan. Turlarni yashash muhiti va geografik mintaqada tarqalishi ularning bioiqlimiy o‘zgaruvchanlari turlicha bo‘lishini ko‘rsatgan. Masalan, asosan bo‘z tuproqlarida tarqalgan *T. tubergeniana* va Nurota qoldiq tog‘larining toshli tuproqlarida uchraydigan *T. affinis* larning iqlimiy o‘zgaruvchilari yuqoridagi turlardan farq qilgan. Shuningdek, SSPs 5.85 senariysi bo‘yicha 2081–2100 yillarga borib *T. tubergeniana* va *T. lanata* eng qulay o‘shish areallari o‘z navbatida 24 va 12.5 marta qisqarishi mumkinligi modellashtirilgan.

Tadqiqot hududining adirlik va o‘rta tog‘larida **keng tarqalgan** turlar sifatida tanlangan *T. korolkowii* va *T. lehmanniana* uchun iqlimiy o‘zgaruvchilar (Bio06, Bio15, Bio19 va PET Seasonality) deyarli o‘xshash bo‘lgan. SSPs 5.85 senariysi bo‘yicha 2100 yilga borib *T. korolkowii* uchun eng qulay o‘shish arealini 2.7 marotaba va *T. lehmanniana* areali 373 marta qisqarishi turlar uchun amaliy muhofaza choralari ko‘rishni talab qiladi.

